

ADABIY TIL VA SHEVALAR MUNOSABATI

*Habiyeva Zebo.
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat universiteti talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy til, uning bugungi kundagi o`rni, rivojlanishi, va shuning bilan birga adabiy tilning shevalar bilan qiyosiy tasviri yoritib berildi.

Kalit so`zlar: adabiy til, shevalar, lingvistik xususiyatlari, konservativ yondashuv, yozma til, til muhiti

Annotation: In this article, the literary language, its place today, its development, and, therefore, the comparative image of the nervous language with dialects were highlighted.

Key words: literary language, dialects, linguistic features, conservative approach, written language, language environment

Аннотация: В данной статье были освещены литературный язык, его место сегодня, его развитие, а, следовательно, и сравнительный образ нервного языка с диалектами.

Ключевые слова: литературный язык, диалекты, языковые особенности, консервативный подход, письменность, языковая среда.

Adabiy til — muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. "Qayta ishlangan" tushunchasi nisbiy (tarixan turli davrlarda, turli xalqlarda adabiy til o'zgarib turgan). Hatto ayrim bir xalqqa ham adabiy til turli davrda turlicha bo'lган (masalan, qadimgi turkiy adabiy til, hozirgi o'zbek adabiy tili). Ba'zi davrlarda bir xalq uchun boshqa bir xalq tili adabiy til vazifasini o'tagan. Masalan, fors va turkiylar uchun mumtoz arab tili, yaponlar uchun mumtoz xitoy tili; ba'zi Yevropa xalqlari uchun lotin tili va boshqalar. Adabiy tilning ikki — og'zaki va yozma ko'rinishi mavjud. Har qanday adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashtiradi va barcha sheva vakillari uchun tushunarli shakl oladi. Rivojlangan adabiy tilsiz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda adabiy til jamiyatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Adabiy til deganda ba'zan uni turli ko'rinishlari bilan qorishtirib yuboradilar. Xususan, yozma adabiy til va og'zaki adabiy til hamda badiiy adabiyot tili bilan adabiy tilni ayni bir deb bo'lmaydi. Adabiy til o'z mezonlarini egallagan shu tilda so'zlashuvchilar barchasi uchun birdek. U ham yozma,

ham og'zaki shakllarda amalda qo'llanadi. Badiiy asar (yozuvchi) tili ham adabiy til me'yorlariga bo'ysunsada, ko'plab xususiylik hamda umum e'tirof etmagan jihatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Turli xalqlarda hamma davrlarda ham adabiy til bilan badiiy asar tili bir taxlitda bo'lмаган. Adabiy til bilan milliy til o'rtasida ham farq bor. Milliy til shu tilning egasi bo'lgan xalq millat bo'lib shakllanganda yuzaga keladi. Milliy til adabiy til vazifasini o'taydi, lekin har qanday adabiy til darhol milliy tilga aylana olmaydi. Adabiy til bilan shevalar o'rtasidagi munosabat alohida muammoni tashkil etadi. Shevalar tarixan qanchalik barqaror bo'lsa, adabiy til uchun shevalarning vakillarini lingvistik nuqtai nazardan umumlashtirish shunchalik murakkablashadi. Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlar (masalan, Italiya, Indoneziya va boshqalar) da shevalar adabiy til bilan teng suratda qo'llanmoqda. Adabiy til tushunchasi odatda til uslublari tushunchasi bilan bog'lanadi. Ammo bu bog'lanish bir tomonlama. Chunki til uslubiyatharining o'zi adabiy til ko'rinishlari hisoblanadi. Ular tarixan shakllangan, muayyan belgilar majmuidan iborat bo'ladi. Mazkur belgilarning bir qismi boshqa uslublarda takrorlanishi mumkin. Lekin, bu takroriy belgilarning ma'lum shaklda birikishi va vazifasining o'ziga xosligi bir uslubning ikkinchi uslubdan farqini belgilaydi. O'zbek tiliga Davlat tili maqomining berilishi (1989) o'zbek adabiy til rivojini ta'minlovchi muhim voqeа bo'ldi. O'zbek adabiy tili turli xalqlar adabiy tili rivojlanish tajribasi asosida yanada takomillashib bormoqda.

Bugungi kunda tilshunoslikda "til" tushunchasining aniq ta'rifi yo'q. Bunga sabab — turli xalqlarda, turli davlatlarda, umuman odamlar orasida til har xil tushuniladi, jahon tilshunosligida qabul qilingan tillarning chegaralari turli mezonlar asosida belgilangan va aniq ilmiy omillarga asoslanmagan.

Ko'pchilik tilshunoslар bugungi kunda tilni siyosiy hodisa deb biladi. Ya'ni muayyan til ma'lum siyosiy chegaralar ichida shakllanadi va uning atrofdagi qardosh til-shevalardan farqi biologik emas, siyosiy bo'ladi. Bu haqida birinchi bo'lib amerikalik germanist Maks Vaynrayx 1945-yili Yahudiy ilmiy institutining Nyu-Yorkda bo'lib o'tgan XIX xalqaro konferensiyasida hazilomuz aytib o'tgan edi. "Til armiyasi va floti bor shevadir", degandi u. Uning bu ta'rifi bugun ham eslab turiladi.

Shu bois ba'zi davlatlarda bir-biridan ancha uzoqlashib, o'zaro tushunarsiz bo'lib qolgan shevalar jamlanmasi yagona til deb hisoblanadi, ba'zi joylarda esa, aksincha, bir-biridan farq qilmaydigan tillar alohida til hisoblanadi. Bu holat tilshunoslikda "til — sheva" muammosini keltirib chiqargan. Ya'ni til bilan sheva o'rtasida aniq chegara, ularni farqlovchi aniq ilmiy mezonlar yo'q. Misollar keltiramiz:

— Xitoyda o'nlab qarindosh, lekin bir-birini tushunmaydigan tillar bor, lekin ularning bari xitoy tilining shevalari hisoblanadi;

— Yaponianing Ryukyu orollarida yapon tiliga qarindosh, lekin yaponlarga tushunarsiz tillar bor. Ularni ham yapon olimlari yapon tilining shevasi deb baholaydi, lekin jahon olimlari alohida til sifatida ko'radi;

- Polshada silez tili, ukrainlarda rusin tili, Latviyada latgal tili shevami, alohida tilmi — siyosiy bahslarga sabab bo‘ladi;
 - italyan tili, kurd tili, aslida, bir-biridan uzoq ko‘plab tillardan tashkil topgan birlashmalardir;
 - rumin va moldavan tillari bir-biridan farq qilmaydi, lekin alohida tillar hisoblanadi;
 - serb, xorvat, boshnoq, qoratog‘ (chernogor) tillari deyarli farqlanmaydi, lekin alohida tillar hisoblanadi;
 - bolgar, makedon, pomak tillari farqlanmaydi, lekin alohida tillar hisoblanadi.
- Shunday qilib, tilshunoslikda til va sheva farqlanmaydi. Ilmiy tadqiqotlarda terminologiyani tartibga solish uchun quyidagi tushunchalar qabul qilingan:
- yozma adabiy me’yoriga ega gapirish tipiga “til” atamasi qo‘llanadi;
 - yozuvi yo‘q til “dialektal kontinuum” deyiladi;
 - til yoki shevaligi noaniq gapirish tipi “idiom” deb yuritiladi.

Demak, til til bo‘lishi uchun, avvalo, uning yozma me’yori bo‘lishi kerak. Lekin yozma me’yor so‘zlashuv tilidan uzoq bo‘lishi mumkin. Bu holda nima qilish kerak? Tilning qaysi variantini “to‘g‘ri” deb qabul qilish lozim? Buning uchun, avvalo, adabiy tilning vazifalarini tushunib olishimiz zarur. Adabiy tilning vazifasi nima?

Adabiy til, avvalo, yozma tildir. Ba’zan uning og‘zaki versiyasi ham ishlab chiqiladi, lekin doim emas. Yozma tilning asosiy vazifasi — turli uzoq-yaqin shevalar vakillari tushunadigan umumiy me’yor bo‘lib, u fuqarolar manfaatiga xizmat qilish lozim. Hamma hujjatni o‘z shevasida yozsa, bu xaos keltirib chiqaradi. Shunaqa xaosning oldini olishga adabiy til xizmat qiladi. Xitoyda adabiy tilning ahamiyati yanada muhimroq. Xitoy tilining shevalari bir-biridan uzoq bo‘lib, amalda har biri alohida tilga aylanib bo‘lgan. Lekin xitoylarning bari bir xil iyerogliflardan foydalanadi, belgilarni har xil o‘qib, bir xil tushunadi. Shu bois iyeroglyph yozuvini saqlab qolish Xitoy uchun favqulodda muhim siyosiy ahamiyatga ega: xitoylar yozuvda bir-birini tushunadi, bu esa, o‘z navbatida, barcha bir millatligi haqida tasavvur hosil qiladi (ya’ni ayirmachilikning oldini oladi).

Adabiy til qanday shakllanadi?

Vazifasidan kelib chiqib adabiy til shevalar asosida ishlab chiqiladi: u shevadan bir nima, bu shevadan bir nima olinib, barchaga tushunarli umumiy shakl hosil qilinadi.

Shundan kelib chiqsak, adabiy me’yorni tilning “to‘g‘ri” varianti deb hisoblash xatodir. Bu — shunchaki jamiyatga xizmat qilish uchun ishlab chiqilgan sun’iy konstrukt. Uni “to‘g‘ri” deb hisoblash kerak emas. U tilning shartli, konkret vazifaga ega shakli ekanini unutmaylik.

Buni bilsak, “yozma tildagi to‘g‘ri, shevadagi noto‘g‘ri” deb hisoblanishiga hamda shevalarning adabiy tilga yaqinligi bo‘yicha iyerarxiyasi mavjud bo‘lishiga chek qo‘yan bo‘lamiz, ya’ni barcha shevalarning mavqeyi bir xil bo‘ladi. Bunday

qilsak, “qaysi sheva adabiy tilga yaqinroq?” bahsi ham tugaydi. Sheva — tilning jonli, tabiiy rivojlangan shakli, adabiy me’yor esa muayyan funksiyaga ega, funksional shakli. Shu tushunchani qabul qilsak, shevaning mavqeyi va “to‘g‘ri”ligi uning adabiy tilga yaqinligiga qarab belgilanmaydi.

Sheva muhimmi, adabiy tilmi?

Nafaqat tildan uzoq vatandoshlar, balki ziyolilar ham ba’zan shevadan qutulib, “to‘g‘ri” gapirishga chaqirishini, shevalar iste’mol doirasini toraytirishga urinishini ko‘ramiz. Umuman, adabiy tilga ko‘r-ko‘rona ishtiyoqni, uning me’yorlariga qat’iy yopishib olishni bugungi kun ziyolilari orasida tendensiya o‘laroq ko‘rsata olamiz.

Lekin adabiy til shartli ekanini bilsak, unga munosabatimiz biroz yengillashadi. Imlo qoidalariга rioya etish kerak, albatta, lekin yozma til isloh etilmasa, qotib qoladi va og‘zaki tildan uzoqlashib boradi. Shu bois ba’zan adabiy tilni revizitsiya qilish, uni shevalarga moslab borish lozim. Misol uchun, biz maktabda o‘qiganimizda ingliz tilida “tobe” fe’lining kelasi zamon yasashda ishlatiladigan ikki shakli bor edi — shall va will. Shall shakli og‘zaki tildan chiqib ketishi ortidan bugungi darsliklarda u yozma tildan ham olib tashlandi. Bizdagi konservativ yondashuv bilan til bunday yangilanmaydi. Yangilanmagan til esa zamonaviylashmaydi, u bilan zamonaviy tushunchalarni ifodalab bo‘lmaydi. O‘zbek tilining bugungi ayrim muammolari shundan kelib chiqadi.

Shunday ekan, shevalar adabiy tilga emas, adabiy til shevalarga moslashib borishi lozim. Zero, sheva tilning jonli shakli va adabiy tilning asosiy boyish manbayidir.

Adabiy tilga e’tibor qaratib, ba’zan shevalarni unutib qo‘yamiz. Aslida, jamiyatda adabiy tilning ham, shevaning ham o‘rni bo‘lishi lozim. Sheva o‘zida tarixiy xotirani, madaniy ko‘nikmalarini va lug‘at boyligini saqlaydi. Uning bu kapitalini adabiy tilga o‘tkazish kerak.

Yana bir masala — shevaning ham, adabiy tilning ham o‘ziga yarasha o‘rni, ahamiyati, iste’mol doirasi bor. Hech biridan butunlay voz kechib bo‘lmaydi. Shevalarni asrash, kundalik hayotda, folkorda, san’atda, TVda, internetda, kinoda, musiqada ulardan faol foydalanish lozim. Adabiy tilning o‘rni — hujjatlarda, ta’limda, OAVda. Shu bois kinoda, ayrim telekanallarda, internetda shevadan foydalanilishini salbiy holat deb baholamayman. Sheva o‘z iste’mol doirasini kengaytiryapti, xolos va bu ijobiy holat.

Qayerda yashashidan qat’iy nazar o‘zbek millatiga mansub barcha odamlar tomonidan ishlatiladigan til milliy (umumxalq) o‘zbek tili deb yuritiladi. Milliy til o‘z tarkibiga sheva, so‘zlashuv nutqi, jargonlar, vulgarizm (so‘kish, qarg‘ish so‘zlar), varvarizm (tilda o‘rinsiz ishlatilgan chet so‘zlar) kabi guruhi so‘zlarni qamrab oladi.

Milliy tilning ma’lum qoidalariга bo‘ysundirilgan, muayyan qolipga solingan, olimlar, san’atkorlar, mutaxassislar tomonidan ishlov berilgan, doim silliqlashtirilib, mukammallashtirilib boriladigan shakli adabiy til deb ataladi. Adabiy til shu tilda

gaplashuvchilarning barchasi uchun tushunarli bo‘lish zarurati adabiy tilning yaratilishiga sabab bo‘lgan. Milliy o‘zbek tilida shevalarning ko‘pligi adabiy tilga bo‘lgan ehtiyojni yuzaga keltirgan. Ayrim tillarda (misol uchun, fin tilida) shevalar kam bo‘lgani uchun adabiy tilga ehtiyoj yo‘q.

Rasmiy hujjatlar, badiiy va ilmiy adabiyot, vaqtli matbuot adabiy tilda yaratiladi, ommaviy axborot vositalari adabiy tilda ish ko‘radi. Adabiy tilning og‘zaki va yozma shakllari mavjud.

Sheva bir millatga mansub bo‘lib, lekin turli hududlarda yashaydigan odamlar tomonidan ishlatiladigan milliy til ko‘rinishidir. Sheva adabiy tildan fonetik (ya’ni tovush), leksik (ya’ni so‘z) va grammatik (ya’ni qo‘sishimchalar va gap qurilishi) jihatdan farq qiladi.

Xalq shevalarining faqat og‘zaki shakli mavjud. Shevalarning bir-biriga yaqin bo‘lgan guruhlari lahja deb ataladi (dialekt so‘zi sheva va lahja tushunchalarini birgalikda ifodalaydi). O‘zbek milliy tili tarkibida uchta lahja bor:

Qarluq lahjasi (janubiy-sharqiy guruh).

Qipchoq lahjasi (janubiy-g‘arbiy guruh).

O‘g’uz lahjasi (shimoliy-g‘arbiy guruh).

Qarluq lahjasi asosan shahar shevalarini o‘z ichiga oladi (Toshkent, Andijon, Farg‘ona, Samarqand, Buxoro, Qarshi). Bu shevalarning muhim fonetik va morfologik belgilari quyidagilar:

so‘z oxiridagi k tovushi y tarzida aytildi: elak – elay, terak – teray;

o lashish yuz beradi: aka – oka, nahor – nohor;

bu lahjada qaratqich kelishigining qo‘sishimchasi yo‘q bo‘lib, uning o‘rniga ham tushum kelishigi qo‘sishimchasi -ni ishlatiladi: ukamni(ng) daftari.

Qipchoq lahjasi shevalari O‘zbekistonning hamma viloyatlarida mavjud, ular asosan qishloqlarda tarqalgan (Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston, Shimoliy Xorazm viloyatlari, Turkmanistonning Toshovuz viloyati shevalari). Belgilari quyidagilar:

y o‘rniga j ishlatiladi: yo‘l – jo‘l, yo‘q – jo‘q;

g‘ o‘rniga v ishlatiladi: tog‘ – tov, sog‘ – sov va b.;

k, q tushiriladi: quri(q), sari(q).

O‘g’uz lahjasi Janubiy Xorazmdagi (Urganch, Xiva, Xonqa, Hazorasp, Qo‘siko‘pir, Shovot tumanlari) bir qancha shevalarni o‘z ichiga oladi. Belgilari:

unlilar qisqa va cho‘ziq aytildi: at (hayvon), aad (ism);

t tovushi d, k esa g tarzida aytildi: tog‘ – dog‘, keldi – galdi;

-ning qo‘sishimchasi -ing tarzida, -ga qo‘sishimchasi esa -a, -na tarzida aytildi: yorimga – yorima.

Hozirgi o‘zbek adabiy tili uchun qarluq lahjasiga kiradigan Farg‘ona-Toshkent shevalari asos qilib olingan. Olimlarning fikricha, Toshkent shevasi fonetik jihatdan, Farg‘ona shevasi morfologik jihatdan adabiy tilga asos bo‘lgan. Umuman olganda, adabiy til barcha shevalarga tayanadi.

Shevalarning o‘ziga xos xususiyatlari adabiy tilning ta’siri bilan asta-sekin zaiflashadi va yo‘qola boradi.

So‘zlashuv tilidagi so‘z va grammatick shakllar barcha shevalarda qo‘llanadigan, lekin adabiy tildan boshqacha tarzda shakllangan birliklardir: kelsa – kesa, bo‘lsa – bo‘sa, olib kel – opkel.

Vulgarizmlar tilda mavjud bo‘lgan so‘kish va qarg‘ish so‘zlardir: haromi, qiztaloq, yer yutkur, oqpadar va b.

Varvarizmlar tilda o‘rinsiz ishlataladigan chet so‘zlar: uspet qilolmadim, papasha, mamasha, nastroeniem yaxshi, znachit, tak, vau, yess va b.

Jargonizmlar ayrim guruh kishilar tomonidan ishlataladigan yashirin ma’noli so‘zlardir: mullajiring, loy soqqa, qurug‘i (barchasi pul ma’nosida).

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A.Nurmonov, N.Mahmudov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., «A.Qodiriy nomidagi xalq merosi», 2003.
2. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, 2002.
3. A.Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., «0‘zbekiston», 2003.
4. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T., «Talqin», 2005. N.Mahmudov, A.Nurmonov, A.Sobirov, V.Qodirov, Z.Jo'raboyeva.